

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI RAQAMLI
TEXNOLOGIYALAR VAZIRLIGI**



**MUHAMMAD AL-XORAZMIY NOMIDAGI TOSHKENT
AXBOROT TEXNOLOGIYALARI UNIVERSITETI URGANCH
FILIALI**

ODOB-AXLOQ KODEKSI

Urganch - 2023

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR
VAZIRLIGI**
**MUHAMMAD AL-XORAZMIY NOMIDAGI TOSHKENT
AXBOROT TEXNOLOGIYALARI UNIVERSITETI URGANCH FILIALI**



ODOB-AXLOQ KODEKSI

Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti Urganch filialining "ODOB-AXLOQ KODEKSI" TATU Urganch filialining 2023-yil 31-iyuldaggi 167-sonli buyrug'i asosida ishlab chiqilgan hamda 29.08.2023-yildagi Filial 1-sonli kengashida tasdiqlangan.

Urganch - 2023

1-bob. Umumiy qoidalari

Ushbu Kodeks O'zbekiston Respublikasi "Ta'lim to'g'risida"gi qonuni, O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiysi, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Davlat oliy ta'lim muassasalarining akademik va tashkiliy-boshqaruv mustaqilligini ta'minlash bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risidagi qarori hamda boshqa qonun va qonunosti hujjatlarga muvofiq ishlab chiqilgan bo'lib, oliy ta'lim muassasasi professor-o'qituvchi va boshqa xodimlari (texnik, yordamchi), talaba-magistrantlari, doktorantlari (keyingi o'rnlarda-xodim, talaba va doktorant) kasbiy odob-axloqining tamoyillari, normalari, ta'lim jarayoni va xizmatdagi xulq-atvorining asosiy qoidalari bilan bog'liq munosabatlarni tartibga soladi.

2-modda. Odob-axloq kodeksining maqsad va vazifalari

Odob-axloq kodeksining maqsadlari :

xodim, talaba va doktorantlar madaniyatini milliy hamda umuminsoniy qadriyatlar asosida shakllantirish;

ta'lim muassasalariga oid odob-axloqning tushunchasini shakllantirish va takomillashtirib borish;

xodim, talaba va doktorantlarni Oliy ta'lim muassasasi va uning qadriyatlariga hurmat ruhida tarbiyalash;

Ta'lim muassasasida kiyinish, tashqi ko'rinish va xulq-atvorga bo'lган talablarni o'rnatishdan iboratdir.

Odob - axloq kodeksining vazifalari quyidagilardan iborat :

Oliy ta'lim muassasasi xodim, talaba va doktorantlari o'rtasida huquqbuzarlik va jinoyatchilikning oldini olishga qaratilgan profilaktik tadbirlami amalga oshirish;

Oliy ta'lim muassasasida zo'ravonlik, shafqatsizlik ya hayosizlik kabi nomaqbul hatti-harakatlar bilan shug'ullanish va targ'ibot-tashviqot qilinishini oldini olish;

turli salbiy illatlar va milliy mentalitetimizga yot bo'lgan g'oya va qarashlar, ekstremizm, separatizm, fundamentalizm va "ommaviy madaniyat"ning ta'sir hamda xurujlarni targ'ibot-tashviqot qilinishiga oid harakatlarni oldini olish;

mazkur nomaqbul xatti-harakatlar sodir etilishining sabab va shart-sharoitlarini aniqlash, bartaraf etish;

xodim, talaba va doktorantlarda yuksak huquqiy ongni shakllantirish orqali O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, qonunlari va boshqa normativ-huquqiy hujjatlariga qat'iy rioya qilish ruhida tarbiyalash;

xodim, talaba va doktorantlarda fuqarolarning huquqlari, erkinliklari va manfaatlarini doimo hurmat qilish va himoya qilish ko'nikmasini shakllantirish va yuksaltirish;

xodim, talaba va doktorantlarda vatanparvarlik, yuksak ma'naviy-axloqiy fazilatlarni shakllantirish va ularni milliy qadriyatlarimizga hurmat ruhida tarbiyalash;

Oliy ta'lif muassasasida sog'lom ijtimoiy-psixologik muhitni shakllantirish va rivojlantirish; xodim, talaba va doktorantlarda tashqi ko'rinishga oid madaniyatni shakllantirish uchun sharoitlar yaratish;

Oliy ta'lif muassasasining davlat va jamiyat hayotidagi hamda ta'lif tizimidagi nufuzi, obro'- e'tiborini asrab-avaylash va yanada oshirish.

3-modda. Kodeksning amal qilish doirasi

Ushbu Kodeks oliy ta'lif muassasasining barcha xodim, talaba va doktorantlariga nisbatan tatbiq etiladi.

2-bob. Kodeksning prinsiplari

4-modda. Oliy ta'lif muassasasi xodim, talaba va doktorantlari xulq-atvorining asosiy prinsiplari

Mazkur Kodeks qonuniylik, fuqarolarning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarining ustuvorligr, vatanparvarlik, xizmat va o'qish burchiga sodiqlik, adolat, halollik va xolislik, samaradorlik va tejamkorlik prinsiplariga asoslanadi.

5-modda. Qonuniylik prinsipi

Oliy ta'lif muassasasi xodim, talaba va doktorantlari O'zbekiston Respublikasi qonunchiligiga so'zsiz rioya qiladilar hamda o'z xizmat va o'qish majburiyatlarini lavozim yo'riqnomalari, mehnat shartnomalari, ushbu Kodeks qoidalari, oliy ta'lif muassasasi Ichki tartib qoidalari hamda ta'limga oid boshqa me'yoriy hujjatlarga muvofiq bajaradilar.

6-modda. Fuqarolarning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarining ustuvorligi prinsipi

Fuqarolarning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlari Oliy ta'lif muassasasining oliy qadriyati bo'lib hisoblanadi. Oliy ta'lif muassasasi xodim, talaba va doktorantlari fuqarolarning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlari buzilishiga yo'l qo'yaydilar va bunday buzilishlar ro'y bergen hollarda ularni tiklashga ko'maklashadilar.

7-modda. Vatanparvarlik, xizmat va o'qish burchiga sodiqlik prinsipi

Oliy ta'lif muassasasi xodim, talaba va doktorantlari o'z o'qish va xizmat faoliyatlarini ma'naviy-axloqiy qadriyatlari, Vatanga sadoqat, xizmat va o'qish burchiga sodiqlik asosida jamiyatning oliy ta'lif muassasasiga bo'lgan talabi va ishonchini ifodalagan holda amalga oshiradilar. Xodim, talabava doktorantlar o'z o'qish va xizmat burchlarini o'zaro xayrixohlik, o'z manfaatlari va mafkuraviy qarashlaridan qat'iy nazar lozim darajada bajaradilar.

8-modda. Adolat, halollik va xolislik prinsipi

Oliy ta'lismuassasasi xodim, talaba va doktorantlari o'z xizmat va o'qish faoliyatlarini amalga oshirishda adolatli, halol va xolis bo'lishlari hamda oliy ta'lismuassasasiga, unga tegishli bo'lgan saytlar va ijtimoiy tarmoqlarga murojaat qilgan barcha yuridik va jismoniy shaxslarga nisbatan ushbu prinsip talablari asosida munosabatda bo'lishlari shart.

9-modda. Samaradorlik va tejamkorlik prinsipi

Oliy ta'lismuassasasi xodim, talaba va doktorantlari o'z faoliyatini samaradorligini innovatsion texnologiyalarni tatbiq etish va boshqa yo'llar bilan doimiy ravishda oshirib boradilar.

Oliy ta'lismuassasasi xodim, talaba va doktorantlari, o'z navbatida oliy ta'lismuassasasining mulkiga, o'zining va boshqa shaxslarning vaqtiga mas'uliyat va ehtiyyotkorlik bilan yondashadilar.

3-bob. Korrupsiyaga qarshi kurashish

10-modda. Korrupsiyaning har qanday shakl va ko'rinishini qabul qilmaslik

Oliy ta'lismuassasasi xodim, talaba va doktorantlari korrupsiyaning har qanday shakli va ko'rinishini qabul qilmaydilar va uning biror-bir tarzda namoyon bo'lishiga qarshi hamjihatlikda qonuniy choralarini ko'radilar.

Xodim, talaba va doktorantlar korrupsiyaga qarshi kurashishlari va uning profilaktikasiga faol ko'maklashishlari, shuningdek, Oliy ta'lismuassasasi korrupsiyaga qarshi kurashish siyosati va boshqa korrupsiyaga qarshi kurashishga oid hujjatlar talablarini so'zsiz bajarishlari, o'z faoliyatlarini oshkora va adolatlari amalga oshirishlari, yuqori axloqiy qadriyatlar va prinsiplarga sodiq qolgan holda qonun ustuvorligiga qat'iy rioya etishlari shart.

4-bob. Xodim, talaba va doktorantlar yurish-turish va rasmiy muloqotiga oid talablar

11-modda. Oliy ta'lismuassasasida kiyinish va tashqi ko'rinishga oid qoidalar

Oliy ta'lismuassasasi xodim, talaba va doktorantlari o'z o'qish va kasbiga mos bo'lgan zamonaviy kiyimda bo'lishlari lozim.

Oliy ta'lismuassasasi xodimi, talabasi va doktoranti bo'lgan xotin-qizlar tanani shaffof ko'rsatib turadigan, yelka, ko'krak va qorin, tizzadan yuqori qismlari ochiq qoladigan hamda haddan ziyod tor kiyimda, shuningdek, qulochchinlar, qulok va barmoqlardan tashqari tananing turli qismlariga turli zirak yoki metall buyumlar bilan, tanasining ko'rinishib turadigan qismida pirsing yoki tatuirovkada oliy ta'lismuassasasiga kelishlari mumkin emas.

Talaba-qizlar oliy ta'lismuassasasiga och rangli va yorqin rangda bo'limgan bluzkalarda, tizzani yopib turadigan yubka, klassik turdag'i shimlar yoki odmi

kostyum va to'q rangdagi poyabzalda kelishlari lozim, shuningdek, o'zlari bilan zaruriy o'quv vositalarini olib kelishlari shart.

Oliy ta'lif muassasasi xodimi, talabasi va doktoranti bo'lgan erkaklar oq, havorang, och jigar rang yoki och kulrang ko'yakda, klassik uslubdagi shim yoki odmi kostyum, va to'q rangdagi poyabzalda, soqoli talab darajasida olingan va soch tartibga solingen holda kelishlari lozim. Bunda, talabalar o'zlari bilan zaruriy o'quv vositalarini olib kelishlari shart

Xodim, talaba va doktorantlarga professionallikka va tanlagan kasbiga xos tarzda kiyinish targ'ib qilinadi.

Xodim, talaba va doktoratlarning auditoriya va xizmat xonalarida ustki kiyim (plash, palto, kurtka hamda bosh kiyim kabilar)da yurishlari taqiqlanadi.

Xodimlar, talabalar va doktoratlarning tashqi qiyofasi va kiyimlari ozoda, pokiza bo'lishi lozim.

Shuningdek, xodim, talaba va doktoratlarning oliy ta'lif muassasasiga kelishi ruxsat etilgan formasiga turli din va konfessiyalar hamda milliylikka zid submadaniyatlarga mansublikni aks ettiruvchi elementlarni (kipa, kashaya, xoch. hijob, yuzning asosiy qismini to'sib qo'yuvchi jag' ostidan o'ralgan ro'mol va boshqalar) qo'shishga yo'l qo'yilmaydi.

Dam olish kunlari (shanba va yakshanba) erkin ust-boshda (tanani shaffof ko'rsatib turadigan, yelka, ko'krak va qorin, tizzadan yuqori qismlari ochiq qoladigan, turli din va konfessiyalar hamda submadaniyatlarga mansublikni aks ettiruvchi kiyimda kelish bundan mustasno) kelishga ruxsat etiladi (rasmiy tadbirlarda ishtirok etishga jalb qilinganlar belgilangan kiyinish tartibiga amal qilgan holda keladi).

12-modda. Majlis va yig'inlarda ishtirok etish

Oliy ta'lif muassasasi xodim talaba va doktoratlari turli tadbirlar (majlislar, tantanali yig'ilislilar, uchrashuvlar, bayramlar)dagi ishtiroki jarayonida so'zga chiquvchilarga nisbatan hurmat bilan munosabatda bo'lislari, tadbir davomida tinchlik va osoyishtalikni saqlashlari shart bo'lib, raislik qiluvchi va moderatorning ruxsatisiz luqma tashlash va so'zga chiqish mumkin emas. Zarurat tug'ilganda nutqlar o'rtasida majlislar zalidan chiqib-kirish mumkin.

13-modda. Binolarda yurish-turish qoidalariga amal qilish

Binolarga kirish va chiqish joylarida, shuningdek, yo'laklarda talabalar xodimlarni, erkaklar ayollarni, yoshlar esa kattalarni o'zlaridan oldin o'tkazib yuborishlari lozim.

Binoga kirayotgan oliy ta'lif muassasasi xodim, talaba va doktoratlari binolarga kirib-chiqishni nazorat qilish uchun tayinlangan mas'ul shaxs yoki navbatchiga o'z shaxsini tasdiqlovchi hujjatni (ruxsatnoma, talabalik guvohnomasi,

pasport va h-k.) ochiq holda ko'rsatishlari yoki maxsus berilgan ID-karta va feys-kontrol orqali turniketlardan o'tishlari shart.

Xodim, talaba va doktorantlar Oliy ta'limga muassasasi hududida yo'lning o'ng tomonidan yurishlari, shuningdek, yo'lak va xollarda mobil aloqa vositalari orqali baland ovozda gaplashmasliklari kerak. Bir-birlariga duch kelganda salomlashishlari, bunda: talabalar xodimlarga, yoshlar kattalarga birinchi bo'lib salom berishlari tavsiya etiladi.

14-modda. Xodim, talaba va doktorantlarning rasmiy muloqot me'yorlari

Oliy ta'limga muassasasi xodim, talaba va doktorantlari tashkilot va muassasalar, ommaviy axborot vositalari hamda fuqarolar bilan o'zaro munosabatga kirishganda quyidagi rasmiy muloqot me'yor va qoidalariga amal qilishlari kerak;

o'z harakatlarini Oliy ta'limga muassasasi manfaatlarini ko'zlab amalga oshirish, uning imijini saqlash va oshirish, Oliy ta'limga muassasasi, uning xodimlari, talabalari va doktorantlari nomi va manfaatlariga ziyon yetkazadigan harakatlarni amalga oshirmaslik, shuningdek, ular bilan muloqot qilganda hamda ijtimoiy tarmoq va messenjerlardagi yozishmalarida o'zlarining namunali xulq-atvori bilan Oliy ta'limga muassasasi haqida yuksak ijobiy taassurot uyg'otish;

Oliy ta'limga muassasasi uning xodim, talaba va doktorantlari haqida haqiqatga to'g'ri kelmaydigan yoki noto'g'ri talqin qilingan, noto'g'ri talqin qilish uchun imkon beradigan ma'lumollami tarqatmaslik. bunday ma'lumotlar tarqalishiga yo'l qo'ymaslik, shuningdek, jamoat oldida va ijtimoiy tarmoqlarda bu mavzuda chiqishlar qilmaslik;

xodim, talaba va doktorantlarning roziligidan ularning shaxsiy hayotiga oid ma'lumotlarni oshkor qilmaslik;

xodim, talaba va doktorantlar haqida ularning kasbiy va o'quv faoliyatiga oid bo'limgan ma'lumotlami aniqlashtirmaslik;

xizmat axborotlarini taqdim etish qoidalariga amal qilish;

so'rалган axborotni yetarilik (haddan tashqari qisqa shu bilan birga o'ta keragidan ortiq) va ishonchlilik (qayta tekshirishni talab qilmaydigan) talablariga muvofiq holda taqdim etish;

o'z xizmat vazifalarini bajarish jarayonida olingan ma'lumotlardan maqsadga muvofiq bo'limgan tarzda foydalanmaslik, shuningdek, ularni Oliy ta'limga muassasasi rahbariyati ruxsatisiz tarqatmaslik;

xodim, talaba va doktorantlarning ta'limga jarayonidagi faoliyati va kasbiy harakatlarini asossiz tanqid qilmaslik, jamoat oldida chiqishlar, shuningdek, ommaviy axborot vosilalari va turli xil ijtimoiy tarmoqlarda davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari va Oliy ta'limga muassasasi faoliyati, uning xodimlari harakatlarini haqiqatga to'g'ri kelmaydigan, asossiz va aniq dalillarga asoslanmagan holda muhokama qilmaslik va ular haqida baho berib, fikr-mulohazalar bildirmaslik.

15-modda. Ish va o'qish vaqtiga rioya qilish

Xodim, talaba va doktorantlar dars mashg'ulotlari va ishga o'z vaqtida kelishlari, mehnat hamda o'qish intizomiga rioya qilishlari shart,

16-modda. Oliy ta'lif muassasasida g'ayriaxloqiy va nojo'ya xatti-harakatlarni sodir etishga yo'l qo'yilmasligi

Talaba va doktoralarning o'qishiga, xodimning esa oliy ta'lif muassasasida mehnat faoliyatini yuritishiga to'sqinlik qiladigan quyidagi g'ayriaxloqiy va nojo'ya xatti-harakatlarni sodir etishi qat'yan taqiqlanadi:

har qanday huquqbuzarlik yoki jinoyat sodir etish, jumladan. tuhmat qilish, haqoratlash;

giyohvand moddalar, psixotrop, sintetik vositalar va ularning analoglari, alkogol va tamaki mahsulotlari, vayp, chilim, elektron sigaretlar va sarkush qiluvchi boshqa vosita hamda moddalarni iste'mol qilish va tarqatish;

tinchlik yoki osoyishtalikka qarshi tajovuz qilish, janjallahish, qimor va tavakkalchilikka asoslangan boshqa o'yinlar o'ynash;

oliy ta'lif mussasasiga moddiy va uning ishchanlik obro'siga salbiy ta'sir etuvchi ma'naviy zarar yetkazish;

xodim, talaba va doktorantlarga jismoniy, ma'naviy yoki moddiy zarar yetkazish;

xodim, talaba, doktorant yoki boshqa shaxslarning mulkiga, moddiy qimmatliklariga egalik qilish, foydalanish yoki tasarruf etish uchun turli ko'rinishda egallab olish, basharti ushbu holat tegishli asoslar bilan o'z tasdig'ini topsa;

oliy ta'lif muassasasi atrof-muhitini har qanday ko'rinishda ifloslantirish;

oliy ta'lif muassasasi binolari va hovlisida, shuningdek, oliy ta'lif muassasasi binolariga tutushgan hududda spirtli ichimliklar ichish va tamaki yoxud boshqa turdag'i mahsulotlarni chekish hamda mast holda bo'lismay, tashqi ko'rinishga va ushbu Kodeksda belgilangan qoidalarga zid ravishda soch-soqoli o'sgan, to'zg'igan, sochlarni noodatiy bir yoki bir necha ranglarga bo'yalgan va kiyinish talablariga rioya qilmagan holda kelish;

oliy ta'lif muassasasiga tegishli kompyuterlarda oliy ta'lif muassasasiga tegishli bo'limgan ma'lumotlarni, shuningdek, turli kinofilmlar, noqonuniy ma'lumotlar, behayo surat va filmlar, milliy, irqiy, etnik, diniy adovatni targ'ib qiluvchi, ekstremistik, separatistik va fundamentalistik kayfiyatdagi har qanday materiallarni tayyorlash, ko'rish, saqlash, tarqatish va ularga da'vat etish;

o'quv mashg'ulotlari va ishga hamda xodim va talabalaming osoyishtaligiga xalaqit beradigan xatti-harakatlar sodir etish (radiouzatgich, televizor, multimedia va ovoz chiqaruvchi moslamalardan maqsadsiz foydalanish);

xodimlar, talabalar va doktorantlar tomonidan soxta ma'lumot va hujjalami taqdim etish;

xodimlar, talabalar va doktorantlar tomonidan oliy ta'lim muassasasi hujjatlariga qasddan o'zgartirish kiritish yoki ularni yo'q qilish (bo'yash, o'chirish, qo'shimcha yozuvlar kiritish yoki zarar yetkazish);

o'quv jarayoniga oid qoida va talablar buzilishi bilan bog'liq holatlar akademik halollikka oid ichki me'yoriy hujjatlar bilan tartibga solinadi;

umumbashariy va milliy qadriyatlarga xos bo'limgan yoki oliy ta'lim muassasasi, uning xodimlari nufuziga putur yetkazadigan materiallarni Internet tarmog'i va boshqa ijtimoiy tarmoqlarga joylashtirish yoki ularning turli nomuvofiq maqsadlarda foydalanish.

Xodimlar, talabalar va doktorantlar tomonidan oliy ta'lim muassasasining ishchanlik obro'si, qadr-qimmati va nufuzini tushiradigan, ta'lim jarayonining ma'naviy buzilishiga olib keladigan agressiya, odamlarning sha'ni va qadr-qimmatini kansitadigan, zo'rplash va vahshiylik, vandalizm, millatlararo nizo qo'zg'atadigan, ta'qiqlangan diniy yo'nalishdagi, terrorizm, ekstremizm, va fundamentalizm, shuningdek, behayo va ishqiy sahnalarni namoyon qiladigan fotosuratlar, video va audioyozuvlardan foydalanish va ularning tarqatilishiga yo'l qo'yilmaydi.

Shuningdek, davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari, sud va huqujni muhofaza qiluvchi organlar hamda boshqa tashkilotlar, shuningdek oliy ta'lim muassasasi faoliyati, uning xodimlari hamda talabalari sha'ni va qadr qimmati hamda ishchanlik obro'siga salbiy ta'sir qiluvchi haqiqatga to'g'ri kelmaydigan, asossiz va tekshirilgan dalillarga asoslanmagan turli xil ko'rinishdagi ma'lumot, fikr, mulohaza va munosabatlarni Internet, ijtimoiy tarmoqlar, shuningdek boshqa ommaviy axborot manbalarida, tarqatuvchilarda, tashuvchilarda paydo bo'lishi (oshkor etilishi) mazkur talaba va doktorantning o'qishiga, xodimning esa oliy ta'lim muassasasida mehnat faoliyatini yuritishiga to'sqinlik qiladigan g'ayriaxloqiy va nojo'ya xatti-harakat hisoblanadi.

5-bob. Oliy ta'lim muassasasi rahbariyatining odob-axloqqa oid majburiyatları va kasbiy faoliyatda manfaatlar to'qnashuviga yo'l qo'ymaslikka oid tartiblar

17-modda. Rahbarning majburiyatları

Rahbariyat hamda tarkibiy bo'linma rahbarlari (keyingi o'rinnlarda - rahbar) o'ziga bo'y sunuvchi xodimlarga nisbatan yuqori professionallik, xolislik, soflik va adolatda o'rnak bo'lishi, oliy ta'lim muassasasi yoxud uning tarkibiy bo'linmasida ijobiy, ma'naviy-psixologik muhit shakllanishiga ko'maklashishi lozim. Rahbar bo'y sunuvchi xodimlardan ularning xizmat vazifalari doirasidan chiquvchi topshiriqlarni bajarishini talab qilmasligi, shuningdek, qonunga xilof xatti-harakatlarni sodir etishga undamasligi kerak.

Rahbar o'z faoliyatida:

kadrlarni qarindoshlik, hamshaharlik yoki shaxsiy sadoqat belgilari bo'yicha tanlash va joy-joyiga qo'yish va mehnat munosabatlarida kamsitish holatlariga yo'l qo'ymasligi;

guruhbozlik, mahalliychilik, favoritizmga, shuningdek, o'z xizmat vazifalarini bajarish jarayonida boshqa salbiy omillarning kelib chiqishiga yo'l qo'ymasligi;

qo'pollik qilmasligi, odamlarning sha'ni va qadr-qimmatini kamsitmasligi, ularga psixologik va jismoniy ta'sir ko'rsatmasligi;

manfaatlar to'qnashuvining oldini olish va ularni tartibga solish yuzasidan o'z vaqtida chora-tadbirlar ko'rishi;

korrupsiyaning oldini olish choralarini ko'rishi;

xodimlaming kasbiy va intellektual jihatdan rivojlanishlanishlari uchun qulayish joy, zamonaviy kompyuterlar, internet tarmog'i, kutubxona fondi va axborot resurslaridan erkin foydalanishlari, hordiq chiqarishlari, dam olishlari, jismonan chiniqishlari uchun barcha sharoitlarni ichki imkoniyatlardan kelib chiqib yaratib berishi;

xodimlar faoliyatini samarali tashkil etib, o'ziga ishonib topshirilgan mulkka va moliyaviy mablag'larga ehtiyojkorlik va tejamkorlik bilan munosabatda bo'lishi shart.

Rahbar qo'l ostidagi xodimlarning mehnat intizomiga rioya qilishlarini talab qilishi va uni ta'minlashga mas'uldir.

6-bob. Xodim, talaba va doktorantlarning o'zaro munosabatlariga oid talablar

18-modda. Xodim, talaba va doktorantlarning o'zaro munosabatlari

Xodim, talaba va doktorantlarning o'zaro munosabatlari milliy qadriyat va an'analar, yagona jamoaviy muhit, o'zaro hurmat va e'tibor, do'stlik, hamjihatlik, halollik vaadolat tamoyillariga asoslanishi lozim.

Xodim, talaba va doktorantlarning o'zaro munosabatlarida inson qadr-qimmatiga hurmatsizlik, shaxsiyatni kamsitish, o'zganining intellektual mulkini o'zlashtirib olish, qo'pollik, behayo so'zlar ishlatish, mushtlashish qat'iyan man etiladi.

Pedagog xodimlar tomonidan talabalarga nisbatan o'quv va tarbiya jarayonidagi yuqori talabchanlik ularning shaxsini hurmat qilish bilan birgalikda amalga oshirilishi kerak.

19-modda. Pedagog xodim va talabalarning auditoriyadagi va undan tashqaridagi o'zaro munosabatlari

Pedagog xodim auditoriyaga kirganida, barcha talabalar o'rinalidan turib hurmatlarini bildirgan holda kutib olishlari, so'ngra pedagog xodim salomlashib, o'tirishga ruxsat bergach, o'z joylarini egallashlari kerak. Pedagog xodim darsini

tugatib auditoriyadan chiqib ketayotganda ham talabalar o'rinalidan turib, kuzatib qo'yishlari lozim.

Pedagog xodimlar o'quv jarayoni va boshqa holatlarda ham talabalarning shaxsini hurmat qilishi, ular bilan munosabatda ochiqlik va xayrixohlik tamoyillariga amal qilish, talabalarga ta'lim berish jarayonida o'z vazifalarini beg'araz amalga oshirishi, talabaga munosabatda ularni kamsitish, qo'pol so'z ishlatish, o'zini yuqori tutish va tanish-bilishchilik kabi yondashuv shakllarini mutlaqo qo'llamaslik, ularga nisbatan doimo haqqoniy munosabatda va xolis bo'lishlari shart

Pedagog xodimlar talabalarga ularni qiziqtirgan fan yoki o'quv kursiga oid masalalar yuzasidan dars jarayonidan tashqari vaqlarda bergen savollariga ham axloq me'yorlariga amal qilgan holda javob qaytarishlari va ularni fanga bo'lgan qiziqish va ishtiyoqlarini oshirish choralarini ko'rishlari zarur.

20-modda. Akademik ta'qib va tazyiqqa yo'l qo'yilmasligi

Oliy ta'lim muassasasi hayotida rahbariyat yoki pedagog xodim tomonidan talabalarni ularning roziligidan muayyan ishlarga jalb etganlik, haq to'lamasdan ularning mehnat kuchidan foydalanish (oliy ta'lim muassasasi va unga biriktirilgan boshqa hududda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti yoki Vazirlar Mahkamasining tegishli qarori bilan xavfsizlik standartlariga qat'iy rioxanasi qilingan holda ixtiyoriy shanbalik va boshqa turdag'i tadbirlar tashkil etilgan hollar bundan mustasno) maqsadida ularga murojaat etilganida, talabalar tomonidan bunday so'rovga rad javobining berilishi pedagog xodim tomonidan kelgusida ularga dars mashg'ulotida past baho qo'yish yoki boshqa turdag'i tazyiq va ta'qib (akademik harassment) qilish bilan bog'liq munosabat ko'rsatilishiga imkon bermaydi va bunday ta'qib qattiq qoralanadi.

21-modda. Uyali aloqa vositalaridan foydalanish

Dars mashg'ulotlari vaqtida uyali aloqa vositalaridan foydalanish barcha uchun qat'iy yanada qo'shilishi kerak. Uyali aloqa vositalaridan foydalanishga zarur va uzrli holatlarda pedagog xodimning ruxsati bilangina ruxsat etilishi mumkin.

22-modda. Dars mashg'ulotida ishliron etish

Talabalarning darsga kech qolib kelishlariga yo'l qo'yilmaydi. Lekin uzrli sababga ko'ra darsga kech qolgan talaba uzr so'rab, pedagog xodimning ijozati bilan auditoriyaga kirib o'z joyini egallashi mumkin.

Pedagog xodim dars mashg'ulotlariga o'zining nojoya harakatlari bilan xalaqit berayotgan talabani yuzaga kelgan vaziyat haqida fakultet dekanini (u o'z o'nida bo'limganda dekan o'rinbosari yoki tyutor-guruh murabbiysini) xabardor qilgan holda darsdan chetlatishi mumkin.

23-modda. Dars mashg'ulotidan tashqari vaqtida muloqot qilish

Talaba uchun pedagog xodim bilan dars mashg'ulotlaridan tashqari vaqtida muloqot qilish zarurati bo'lsa, u holda muloqot:

maslahat soatlari, mustaqil ish yoki o'zaro kelishuv bo'yicha belgilangan vaqtida amalga oshirilishi mumkin;

talaba o'zi muloqot qilmoqchi bo'lgan pedagog xodimning lavozimi, ismi, otasining ismi va familiyasini bilishi maqsadga muvofiq.

Asoslangan jiddiy sabablar (qo'pollik, tamagirlik, dars sifatining pastligi, pedagog xodimning aybi bilan mashg'ulotlar o'tkazilishidagi muntazam uzilish hollarini isbotlovchi dalillar va b.) hamda guruh (kurs)ning yakdil fikri mavjud bo'lgan holatlarda talabalar pedagog xodimni almashtirish haqida iltimos bilan fakultet dekaniga murojaat qilishlari mumkin.

24-modda. Subordinatsiya

Rahbar xodimlarga xodim, talaba va doktorantlar tomonidan biron-bir masala yuzasidan vujudga kelgan holatlar bo'yicha murojaat qilinishi muayyan tartib (subordinatsiya tamoyili), ya'ni munosabat bildirishdagi rahbariyat bo'g'inlariga bosqichma-bosqich chiqish asosida tashkil etiladi. Oliy ta'lim muassasasi rektoriga talabalarning to'g'ridan-to'g'ri murojaat qilish holatlari bundan mustasno.

25-modda. Tashabbus va faollik

Xodim, talaba va doktorantlarning oliy ta'lim muassasasida ma'naviy-axloqiy muhitni yanada yaxshilash, ta'lim sifatini oshirish, innovatsion g'oyalardan samarali foydalananish, turli xil manfaatli tadbirlar uyushtirish bo'yicha tashabbus va g'oyalari rag'batlantiriladi.

7-bob. Xodim, talaba va doktorontlarning odob-axloqqa oid majburiyatlar

26-modda. Odob-axloqqa oid majburiyatlar

Oliy ta'lim muassasasiga o'qishga, ishga kirayotgan shaxslar mazkur Kodeks bilan yozma ravishda (imzo chektirib) tanishtiriladilar.

Xodim, talaba va doklorantlar:

qonun hujjatlari va mazkur Kodeks talablariga rioya etishga;

doimo yuksaklikka intilish, halollik va adolat bilan hayot kechirish kabi oljanob fazilatlarni chuqur anglashga;

odob-axloqqa oid milliy an'analarimiz, urf-odat va qadriyatlarimizni hurmat qilishga;

o'z ustilarida doimiy ravishda ishlash va qabul qilinayotgan qonun hujjatlarini muntazam ravishda o'rganib borishga;

o'z vazifalarini vijjdonan, professional darajada amalga oshirishga;

oliy ta'lim muassasasi obro'-e'tibori va nufuziga dog' tushiradigan har qanday harakatlarni sodir etishdan o'zini tiyishga;

oliy ta'lim muassasasi to'g'risidagi axborotlardan uning manfaatlari va ishchanlik obro'siga ziyon yetkazish maqsadida foydalanmaslikka;

oliy ta'lim muassasasi mulkiga ehtiyyotkorlik bilan munosabatda bo'lish (ko'char va ko'chmas mulk, o'simlik va hayvonot dunyosiga va b.), shu jumladan. xizmat vazifasini bajarish uchun berilgan moddiy texnika vosilalaridan to'g'ri va tejamkorona foydalanishga;

elektr energiyasi va suvni tejamkorona ishlatishga;

biron-bir noxush voqeа yoki hodisa ro'y bersa, u haqda zudlik bilan Oliy ta'lim muassasasi rahbariyatiga xabar berishga;

belgilangan cheklolar va taqiqlarga rioya qilish, o'z vazifalarini og'ishmay bajarishga, xodim, talaba va doktorantlarning shaxsiy va oilaviy muammolarini muhokama qilmaslikka, hech bir shaxs haqida jinsi, irqi, millati, tili, diniy e'tiqodi. ijtimoiy kelib chiqishi va lavozimi haqida hamda boshqa xususiyatlaridan qat'i nazar noto'g'ri fikr yuritmaslikka va uni kamsitmaslikka;

xodim, talaba va doktorantlar, shuningdek, boshqa shaxslar haqida turli ig'vo, fitna, g'iybat va bo'htonlar uyushtirmaslikka va tarqatmaslikka;

oliy ta'lim muassasasi ishchanlik obro'si yoki nufuziga putur yetkazadigan nizoli vaziyatlarga yo'l qo'ymaslikka;

xodim, talaba va doktorantning mehnat va o'quv jarayonidagi sa'y-harakailariga qasddan ziyon yetkazmaslikka;

xotin-qizlarning sha'ni va qadr-qimmatini kamsitadigan harakatlar sodir etmaslikka, shilqimlik qilmaslikka, o'zaro munosabatlarda umume'tirof etilgan axloq qoidalarini mensimaslikda ifodalanuvchi behayo so'zlardan foydalanmaslikka;

davlat organlari va mansabdor shaxslarning, shuningdek, Oliy ta'lim muassasasi rahbariyatining o'z vakolatlari doirasida qabul qilgan (bergan) qarorlarini (topshiriqlarini) o'z vaqtida va sifatli bajarishga;

shaxsiy foydasi hamda o'zgalar manfaatini ko'zlab o'z mavqeini suiiste'mol qilmaslikka;

haqiqatni gapirishga, rahbarlar va boshqa xodimlarni chalg'itmaslikka;

mutasaddi xodimlarning ruxsatisiz turli reklama vositalarini o'rnatmaslikka;

kasbiy faoliyati davomida o'zlariga ma'lum bo'lgan, ularning oshkor etilganligi uchun qonun hujjatlarida belgilangan tartibda javob beriladigan axborotning saqlanishi va maxflyligini ta'minlash yuzasidan barcha choralarни ko'rishga;

sog'lom turmush tarzini yuritish va atrofdagilarning sog'lig'ini saqlashga g'amxo'rlik qilish, estetik va ekologik madaniyatning oshishiga ko'maklashishga;

tanqidiy mulohazalarni bildirishga va obyektiv qaror qabul qilishga, o'z xato va kamchiliklarini anglash va bartaraф etishga;

moddiy jihatdan yaxshi ta'minlanganligini turli yo'llar bilan ataylab ko'z-ko'z qilmaslikka;

Axborot-resurs markazi xodimlari bilan xushmuomala bo'lishga, kitoblar va jihozlarga ehtiyyotkorona munosabatda bo'lishga, u yerda uyali aloqa vositalarini o'chirib qo'yish yoki ovozsiz rejimga qo'yishga, baland ovozda so'zlashmaslik va atrofdagilarga xalaqit bermaslikka, oziq-ovqat iste'mol qilmaslik. qog'oz, saqich va boshqa chiqindilarni qoldirib ketmaslikka, kitoblarni olish va topshirish tartib-qoidalariga rioya qilishga;

sport majmuasiga sport kiyimi va poyabzalida kirishga;

sport inventarlariga nisbatan ehtiyyotkorona munosabalda bo'lishga;

mashg'ulotlardan keyin sport inventarlarini belgilangan joylarga qayta topshirishga;

sport majmuasining belgilangan tartib-qoidalariga rioya qilishga;

oliy ta'lif muassasasi auditoriyalari, binolari va binolarga tutashgan hududda tozalikni saqlashga;

hududni ifloslantirmaslik, chiqindilarni joylarda qo'yilgan maxsus qutilarga tashlashga;

shaxsiy avtomobilni taqiqlangan joyda qoldirmaslik, yo'l harakati qoidalarini buzmaslik va mensimaslikka (beparvo bo'lish), shuningdek, transport vositalaridan foydalanishda xavf-xatar yaratmaslikka;

ish (o'qish)dan tashqari vaqtida umumiy qabul qilingan odob-axloq normalariga rioya etishlari, g'ayriijtimoiy xatti-harakatlarga yo'l qo'ymaslikka majbur.

27-modda. Odob-axloqqa oid qo'shimcha talablar

a)talabalar:

nutq madaniyatini doimiy takomillashtirib borishga;

talabalaming o'z-o'zini boshqarish tizimini faol qo'llab-quvvatlash va mustahkamlash, ijodiy faoliyatni rivojlantirish va jamoaviy madaniyatni o'stirishga;

pedagog xodim bilan boshqa talabalarining bahosini muhokama qilmaslikka;

yozma ishlarni himoya qilish va reyting nazoratiga doir tartib-qoidani bajarish vaqtida chetdan yordam olmaslik, o'zgalarga yordam ko'rsatmaslikka;

boshqa shaxslar tomonidan tayyorlangan topshiriqlar yoki yozma ishlarni o'z nomidan topshirmslikka;

mashg'ulotlarni sababsiz o'tkazib yubormaslikka va darslarga sababsiz kechikib kelmaslikka;

o'quv mashg'ulotlari vaqtida oliy ta'lif muassasasi hududida behuda yurmaslikka;

dars mashg'ulotlari o'tilayotgan vaqtida fakultet dekanlari, magistratura bo'limi boshlig'ining ruxsatisiz Oliy ta'lif muassasasi hududidan ketib qolmaslikka;

oliy ta'lif muassasasi xodimlari va o'qituvchilariga qo'pollik qilmaslikka, ular bilan tortishmaslikka, agarda ular nohaq bo'lsa tegishli shaxslarga xabar berishga, o'qituvchilarning shaxsiy hayotiga oid noo'rin savollar bilan murojaat qilmaslikka. ularga nisbatan adovat saqlamaslikka;

xodim, talaba yoki doktorant bilan nizoli vaziyat yuzaga kelganda o'z hissiyotlarini jilovlashga va mazkur vaziyatni ko'rib chiqish bo'yicha tegishli bo'linma va xodimlarga (murabbiy (tyutor), dekan, O'zbekiston yoshlar ittifoqi boshlang'ich tashkiloti, Ma'naviyat va ma'rifat markazi, Talabalar Kengashi) murojaat qilishga;

o'quv jarayonida faol, e'tiborli bo'lishga va pedagog xodimning ko'rsatmalariga qat'iy rioya qilishga;

dars vaqtida gaplashmaslik hamda dars mashg'ulotiga taalluqli bo'limgan ishlar bilan shug'ullanmaslikka;

jihozlarga ehtiyotkorona munosabatda bo'lish, stol va stillarga yozmaslikka;

qog'oz, saqich va boshqa keraksiz narsalarni auditoriyada qoldirib ketmaslikka;

mashg'ulotlar davomida ovqatlanmaslik, saqich chaynamaslikka, shuningdek, shaxsiy kompyuter va boshqa kommunikatsiya vositalaridan faqat pedagog xodim ruxsati bilan foydalanishga;

pedagog xodimga mashg'ulotlar vaqtida savol yoki iltimos bilan qo'l ko'targan holda va ruxsat berilganidan so'ng murojaat qilishga;

umumiyligi ovqatlanish joylarida taomlarga buyurtma berish va olishda navbat tartibiga hamda belgilangan qoidalarga rioya qilishga;

Talabalar turar joyi Ichki tartib qoidasiga qat'iy rioya qilishga;

jamoat xavfsizlik manfaatlaridan kelib chiqib, imkon darajasida oliy ta'lif muassasasiga jamoat transportida kelishga;

b) xodimlar:

o'z xizmat joyidagi tartib-intizomga va Oliy ta'lif muassasasi ichki tartib qoidalariga rioya qilishga;

ta'tildan oldin yoki mehnat shartnomasi bekor qilinganda o'z xizmat joyini talabga javob beradigan holatda qoldirishga, o'z zimmasidagi orgtexnika vositalari va boshqa materiallarni, o'ziga topshirilgan, lekin hali yakunlanmagan vazifalarni boshqa shaxsga topshirmaslikka;

telefon orqali muloqot qilishda muomala madaniyati va axborot taqdim etish qoidasiga rioya qilishga (jumladan, suhbatni eng avval rasmiy tarzda salomlashishdan boshlab, so'ng o'z xizmat muassasasi, lavozimi hamda familiyasi, ismi, sharifini aytib, maqsadga o'tish lozim, taqdim etilayotgan axborot maksimal qisqa. lo'nda va aniq bo'lishi kerak, so'ralayotgan ma'lumot suhbat jarayonida izlanishi tufayli telefon tarmog'ini band qilishga yo'l qo'yilmaydi, zarurat bo'lsa, qayta qo'ng'iroqni amalga oshirish mumkin);

yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalashga;

yoshlar orasida sog‘lom turmush tarzini qaror toptirish, ularni ichkilikbozlik va giyohvandlik illatlaridan, boshqa turli halokatli tahdidlar hamda biz uchun yot bo‘lgan ekstremistik ta’sirlardan, "ommaviy madaniyat" xurijlaridan ogoh etib borishga;

ta’lim oluvchilarni ma’naviy-axloqiy tarbiyalashda va ma'rifiy ishlarning samarali shakl hamda uslublarini ishlab chiqishga ko’maklashishga;

o‘z xizmat vazifalarini vijdonan bajarishga shubha tug’diradigan xatti-harakadarni qilmaslikka. talabalar bilan o‘z hamkasblarini kasbiy va shaxsiy kamchiliklarini muhokama qilmaslikka;

dars mashg’ulotlariga kechikib kelgan yoki boshqa sabablarga ko’ra talabalarni o’quv mashg’ulotlaridan chiqarib yubormaslikka, shuningdek, talabaga oliy ta’lim muassasasi talabalar safidan chetlashtirish (kursdan kursga qoldirish) yoki talabaning majburan o’qishdan voz kechishiga undash bilan qo’rqtmaslikka, uning asossiz talabalar safidan chetlashtirilishiga (kursdan-kursga qoldirilishiga) olib kelmaslikka;

ta’lim oluvchilarga nisbatan tazyiq o’tkazish, tegajog’liq va zo’ravonlik qilish kabi sha’n va qadr-qimmatini kamsitadigan nojo’ya-xatti harakatlarni sodir etmaslikka;

talabaga nisbatan adovatga bormaslikka;

akademik guruhda (kursda) talabalar xulqining umumiy madaniy holati haqida fakultet dekanlariga kerak bo‘lgan hollarda ta’sir chorralari ko’rish lozimligi yuzasidan yozma ma'lumot taqdim etish kabi talablarni bajaradilar.

8-bob. Rag’batlantirish va chora ko’rish tartibi

28-modda. Xodim va talabalarni rag’batlantirish

O’quv yili davomida mazkur Kodeksga to’la rioya qilgan, Oliy ta’lim nuassasasidn yuksak ma’naviy-axloqiy muhitning yanada qaror topishi va mustahkamlanishiga o‘z hissasini qo’shgan xodim va talabalar rahbariyat, fakultet dekanlari, kafedra mudirlari va boshqa tarkibiy bo’linma rahbarlari tavsiyasiga binoan belgilangan tartibda moddiy yoki ma’naviy rag’batlantirilishlari mumkin.

29-modda. Kodeksga rioya qilishning attestatsiya va boshqa jarayonlar uchun ahamiyati

Xodimlar tomonidan mazkur kodeksga rioya etilishi attestatsiyalar o’tkazishda, yuqori va boshqa lavozimlarga tayinlash (karyeraviy o’sish) uchun kadrlar zaxirasini shakllantirishda hisobga olinadi.

30-modda. Kodeks qoidalarini buzganlik uchun javobgarlik

Oliy ta’lim muassasasi xodim, talaba va doktoranti tomonidan mazkur Kodeks qoidalarining buzilishi uni belgilangan tartibda javobgarlikka tortishga asos bo’lib xizmat qiladi.

31-modda. Kodeks va ichki tartib-qoidalarning o'zaro munosabati

Xodim, talaba va doktorantlar mazkur Kodeks qoidalari buzganida, ularga nisbatan oliy ta'lif muassasasi Ichki tartib qoidalaring VII bobida (Mehnat va o'qish intizomini buzganlik uchun javobgarlik) qayd etilgan choralar qo'llaniladi.

9-bob. Odob-axloq komissiyasi fuoliyatini tashkil etish

32-modda. Odob-axloq komissiyasi

Mazkur Kodeks normalarining xodim, talaba va doktorantlar tomonidan buzilishiga oid masalalar, qoida tariqasida, Odob-axloq komissiyasi tomonidan ko'rib chiqilishi mumkin.

Shuningdek, Odob-axloq komissiyasi, qoida tariqasida, oliy ta'lif muassasasi rektoriningko'rsatmasi bo'yicha;

xizmat tekshiruvi natijalariga ko'ra;

o'z tashabbusi bilan;

oliy ta'lif muassasasi xodim, talaba va doktorantlaridan. shuningdek, oliy ta'lif muassasasiga aloqa kanallari orqali kelib tushgan axborot asosida ham ushbu turdag'i masalalarni ko'rib chiqishi mumkin.

Odob-axloq komissiyasi kamida 5 kishidan iborat tarkibda tuziladi. Odob-axloq komissiyasining maqsadi, vazifalari, funksiyalari, huquqlari va uning faoliyatini tashkil etish bilan bog'liq boshqa masalalar oliy ta'lif muassasasi rektori tomonidan tasdiqlangan Odob-axloq komissiyasi to'g'risidagi nizomda belgilanadi.

33-modda. Odob-axloq komissiyasi xulosasi

Odob-axloq kodeksining buzilishi holatlarini Odob-axloq komissiyasi tomonidan ko'rib chiqish natijalari bo'yicha intizomiy yoki boshqa tarzdagi qoida buzilishlarining mavjudligi (mavjud emasligi) to'g'risida xulosa chiqariladi, Ayni vaqtida oliy ta'lif muassasasi rektoriga ko'rib chiqishi uchun qoidabuzar xodim, talaba va doktorantni javobgarlikka tortish to'g'risida taklif kiritiladi. Yo'l qo'yilgan qoida buzilishining xususiyatini hisobga olgan holda Odob-axloq komissiyasi xodim, talaba va doktorantga nisbatan Odob-axloq kodeksining buzilishiga yo'l qo'ymaslik to'g'risidagi ogohlantirish bilan cheklanishi mumkin.

Odob-axloq kodeksiga rioya etmagan xodim, talaba va doktorantni intizomiy javobgarlikka tortish bo'yicha buyruq loyihasi fakultet dekanlari va magistratura bo'limi (talabalarga nisbatan), kadrlar bo'limi (xodimlar va doktorantlarga nisbatan) tomonidan tayyorlanadi,

Xodim, talaba va doktorantlar o'zlari yo'l qo'ygan qoida buzilishi, qoida buzilishining ko'rib chiqilishi jarayoni haqida axborotni olish va o'zini himoya qilish uchun dalillarni taqdim etish. shuningdek, oliy ta'lif muassasasi qarorlari yuzasidan belgilangan tartibda shikoyat qilish huquqiga egadirlar.

34-modda. Jamoatchilik nazorati

Xodim, talaba yoki doktorantning xulq-atvori ustidan jamoatchilik nazoratini ta'minlash maqsadida, mazkur Kodeksga rioya etmaganlik holatlari Kasaba uyushmasi qo'mitasi, Xotin-qizlar masalalari bo'yicha maslahat kengashlari va O'zbekiston yoshlar ittifoqi boshlang'ich tashkilotida ham muhokama qilinishi amaliyoti joriy etilishi mumkin.

10-bob. Yakuniy qoida

35-modda. Kodeksning kuchga kirishi hamda unga o'zgartish va qo'shimchalar kiritish

Mazkur kodeks oliv ta'lif muassasasi Kengashi tomonidan tasdiqlanganidan so'ng kuchga kiradi va unga o'zgartish hamda qo'shimchalar kiritish oliv ta'lif muassasasi Kengashi qaroriga binoan amalga oshiriladi.

Izoh:

"Ta'lif to'g'risida"gi qonunning:

46-moddasida ta'lif tashkilotining ustaviga va (yoki) boshqa ta'sis hujjatlariga, ichki mehnat tartibi qoidalariga rivoja etishi pedagog xodimning majburiyatlaridan biri ekanligi;

48-moddasida ustav (ta'sis hujjati) talablariga, ichki tartib-qoidalariga, vaqtincha yashash joylari qoidalariga va ta'lif faoliyatini tashkil etish hamda amalga oshirishga oid boshqa ichki hujjatlar talablariga rivoja etish ta'lif oluvchilarining majburiyatlaridan biri ekanligi nazarda tutilgan.

O'zbekiston Respublikasi Mehnat kodeksining:

22-moddasida ichki mehnat tartibiga rivoja etish xodimning majburiyatlaridan biri ekanligi;

296-moddasida mehnat shartnomasi taraflarining huquqlari, majburiyatlar va javobgarligi, shuningdek mehnat munosabatlarini tartibga solishga oid boshqa masalalar ichki mehnat tartibi qoidalarida belgilanishi nazarda tutilgan.

